



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

YOSHLARDA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLARIMIZ ME'ROSI VA JADID PEDAGOGIKASINING O'RNI

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasida v.b. dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)

Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Jahonda shiddat bilan rivojlanib borayotgan barcha sohalar qatori ekologik jarayonlar hozirgi kunning muhim yo'nalishidan biridir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichlaridan biri bu shaxsning tabiiy muhitga nisbatan mustaqilligining yuqori darajasidir. Bu borada yoshlarga ekologik tarbiyani shakllantirish, ekologik tushunchalarni targ'ib qilish ekologik tarbiya elementlarini yanada mukammalroq singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning ko'p ming yillik tarixi va boy madaniy merosi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz o'z asarlarida, yaratgan manbaalarida ma'naviy-ekologik qadriyatlarga atroflicha e'tibor bergan. Bu borada yerni e'zozlagan, suvni muqaddas bilgan, bir yangi nihol ekmay turub, daraxt kesish yomon illat hisoblangan va tabiat bilan bog'liq tasavvurlari, qarashlarini yoshlar onggiga chuqur singdirganlar. Hammamiz yaxshi bilasiz, xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Tuproqni, suvni, havoni, ostonasini pok saqlashga intilgan. Xalqimizda "Birni kessang, o'nni ek" degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo'qolib ketdi"[1].

Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas.

Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutmasak, ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz"[5].

Afsuski, globallashuv ta'sirida ajdodlarimizning tabiatdan foydalanish borasidagi udumlari va an'anaviy odob axloq qoidalari unutilib borayotgandek.[6].

Ajdodlarimiz ilgari, atrof-muhit, uy-joylar, mahalla-ko'chalar, bozor atroflari saranjom sarishtaligigga katta e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda oilalarda bolalarga atrof-muhitga bo'lgan nojo'ya munosabatiga ota-onalar munosabat bildirishlari va buning salbiy oqibatini tushuntirib, tabiiy muhit tozaligi, havoning musaffoligi avvalom bor bizning salomatligimiz, hayotimiz barqarorligini ta'minlashini astoydil o'qitishlari kerak.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'rta Osiyolik allomalar Muhammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar hali "Ekologiya" fani fan sifatida taraqqiy etmagan davrlarda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar[4].

Muhammad Muso al-Xorazmiy "Bilginki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi" deb ta'kidlagan edi. Buyuk alloma suvlarni ortiqcha sarflash hozirgi kundagi Orol fojiasi kabi noxush hodisalarni keltirib chiqarishni nazarda tutgan bo'lsa, ehtimoldan holi emas.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning ko'payishi, tashqi muhit bilan o'zaro bog'liqligi, aloqasi va ho'jalik ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin.

Abu Nasr Farobiy odam a'zosining tuzilishi va unda kelib chiqadigan o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kasallikning oldini olish chora-tadbirlari, shuningdek, tabiiy sun'iy tanlanishlar haqida ma'lumotlar qoldirgan.

Abu Ali Ibn Sino inson sog'lig'ini saqlash, parhez, gigiena to'g'risida, kasalliklarni, jumladan, asab kasalliklarini davolashda jismoniy usullar yaxshi natija berishini aytgan. U kishi organizmga tashqi muhit ta'siri muhimligini, ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikrlar qoldirganlar.

Buyuk ma'rifatparvar Jadidlarimizdan biri Abdulla Avloniy bolalar uchun bir qancha she'r va masallar yozgan. Shoir bu asarlarida maktab yoshidagi bolalarni fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, vatanga muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan. Uning ko'pgina she'rlari zamirida vatanni sevish g'oyasi yotadi. Shoir bu she'rlarida Vatanni sodda va samimiy misralarda tasvirlaganki, faqat o'sha davr o'rtalaridagina emas, balki bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin.[3] Shoir Vatani ta'rifini boshlab, "tog'lardan qumlik" Toshkent emas, Toshkent erur", deya bolalarda ona diyorga katta mehr muhabbat uyg'otishga va atrof muhitga befarq bo'lmaslik uni ko'z qora chig'idek asrash kabi tuyg'ularni singdirishga erishgan. Tabiatni muxofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va ekologik sharoitlarni yaxshilashda ekologik ta'lim tarbiya muhim ro'l o'ynaydi. Turli mamlakatdagi ekologik vaziyat, tabiatdan foydalanish xususiyatlari ko'p jihatdan aholining ekologik savodxonlik darajasi, ekologik madaniyatga bog'liqdir. Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ekologik ta'lim va tarbiya bog'chadan oliy o'quv yurlarigacha uzluksiz davom etishi lozim. Tabiatga mexr-insonlarga oqibatdir.[2]



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ekologik ta'lim tarbiya BMT, YUNESKO va YUNEP ning diqqat markazidagi masaladir. Ekologik ta'laim va tarbiyani rivojlantirish uchun jaxon, aloxida davlatlar miqyosida turli tadbirlar o'tqazilmoqda. Har bir soha mutaxassisi ekologik savodxon bo'lishi va o'z faoliyatida tabiatga zarar yetkazmasligi, ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga hissasini qo'shishi lozimdir. O'zbekiston respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish soxasida ma'lum tadbirlar o'tqazilmoqda. Mamlakatimizda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning uzluksiz konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Lekin bu borada kamchiliklar hali ko'p. Jumladan O'zbekiston respublikasining "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risidagi" qonunida ushbu masalaga kam o'rin berilgan. Ekologik axborot tizimi yaxshi shakillanmagan. Bu muammolar yaqin yillar ichida ijobiy hal qilinishi lozim.[7]

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XXI asr-ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Xar bir inson ona sayyoramiz tabiatni ziyon yetkazmasdan o'zgartirishi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishidan.[1]

2. O'zbekiston «Ekologiya xabarnomasi» jurnali sonlari.[2]

3. Aydarov Ye.B. Ekologiya va tabiatdan foydalanish (o'quv-qo'llanma).[3]

4.www.arxiv.uz.[4]

5. Barakayev R. "A.Avloniy va bolalar adabiyoti" Toshkent Fan, 2004.[5]

6. O'zbekiston milliy ensklopediyasi (2000-2005)[6]

7. <https://lex.uz/docs/-107115> [7]

8. Qurbonovich, M. U. B., & Akramjon o'g, A. R. Z. (2023, June). JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 129-135).

9. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE GENDER APPROACH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 688-693.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

10. Максудов, У. Қ. (2019). УСТНОЕ НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 49-51).

11. Soxib o'g'li, A. S. (2023). TALABALARDA IJTIMOY DAXLDORLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).